

**МАКТАБ О‘QUVCHILARIDA IJROCHILIK MAHORATINI
OSHIRISH VA KOGNITIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA
MUSIQIY-DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI**

Ne‘matova Muxtabar Nodirjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqqa ta’limi
va sa’nat” yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar:
Rejаметова Nilufar Ilhamovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
“Musiqiy ta’lim” kafedrasi PhD dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida ijrochilik mahoratini oshirish hamda ularning kognitiv (bilish) qobiliyatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Musiqqa ta’limida o‘quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, ularni estetik didga ega, tafakkuri keng shaxslar sifatida tarbiyalashning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqqa o‘yinlari, interaktiv mashg‘ulotlar va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning musiqiy tafakkuri, eshitish qobiliyati, ijro madaniyatini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Ijrochilik mahorati, kognitiv qobiliyat, musiqqa ta’limi, maktab o‘quvchilari, musiqiy tafakkur, ijodkorlik.

**ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНО-ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО МАСТЕРСТВА И
ФОРМИРОВАНИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У
ШКОЛЬНИКОВ**

Неъматова Мухтабар Нодиржон кызы
Узбекский государственный
университет музыки и искусств имени

Низами, кафедра

«Музыкальное образование и искусство»

Магистратура 1 курса

Научный руководитель:

Реджаметова Нилуфар Ильхамовна

Доцент кафедры

«Музыкальное образование»

Узбекского государственного

университета музыки и искусств имени Низами

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования исполнительского мастерства учащихся средней школы и формирования их познавательных (когнитивных) способностей. Анализируются эффективные методы развития творческого потенциала учащихся в музыкальном образовании, воспитания их как личностей с эстетическим вкусом и широким кругозором. Показаны пути развития музыкального мышления, слуха и исполнительской культуры учащихся посредством музыкальных игр, интерактивных занятий и творческих заданий

Ключевые слова: Исполнительское мастерство, познавательные способности, музыкальное образование, школьники, музыкальное мышление, креативность.

THE IMPORTANCE OF MUSICAL-DIDACTIC GAMES IN IMPROVING PERFORMING SKILLS AND DEVELOPING COGNITIVE ABILITIES IN SCHOOLCHILDREN

Mukhtabar Nodirjon Nematova, Nizami State University of Music and Performing Arts, first-year Master's student, majoring in "Music Education and Art"

Supervisor: Nilufar Ilkhamovna Redzhametova, Nizami State University of Music and Performing Arts, PhD in Art History, Associate Professor

Abstract: This article discusses the issues of improving the performance skills of secondary school students and the formation of their cognitive (cognitive) abilities. Effective methods of developing students' creative potential in music education, educating them as individuals with aesthetic taste and broad thinking are analyzed. Also, ways of improving students' musical thinking, hearing ability, and performance culture through music games, interactive activities, and creative tasks are shown.

Keywords: Performance skills, cognitive abilities, music education, schoolchildren, musical thinking, creativity.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim darajasi emas, balki ularning ijodkorlik va kognitiv salohiyatini ham rivojlantirish muhim masalaga aylangan. Musiqa ta'limi bu jarayonda o'quvchilarni ichki dunyosini boyitish, hissiy idrokni chuqurlashtirish va ijrochilik mahoratini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ijrochilik - bu shunchaki asarni to'g'ri ijro etish emas, balki uni badiiy idrok bilam ifoda etish, kompozitor fikrini tushunish o'z his-tuyg'ulari orqali musiqaga jon baxsh etish jarayonidir. Shu bois musiqa o'qituvchisining vazifasi nafaqat texnik ko'nikmalarni o'rgatish, balki o'quvchilarning bilish jarayonlarini - diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va analiz qilish qobiliyatlariniham rivojlantirishdan iboratdir. Musiqa insonning ichki dunyosini boyitib, etik va estetik didini shakllantiradi. Shuningdek, musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini oshirish, o'quvchilarning musiqiy iste'dodini oshirishga, ular o'rtasida jamoaviylik, mehnatsevarlik va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan muhim jarayonidir.

Maktabdagi musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning ijodiy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ularning shaxsiy qobiliyatlarini keng ko'lamda

rivojlantirishga yordam beradi va ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar ochadi. Maktab o'quvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- musiqiy asarning badiiy mazmunini tahlil qilish;
- o'quvchilarning eshitish, ritm va intonatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ijro jarayonida o'z-o'zini baholashni o'rgatish;
- jamoaviy ijro va sahnada o'zini tutish madaniyatini shakllantirish;

O'quvchilar bilan mashg'ulotlarda har bir asar o'rganilyotganda asarning hissiy ishtirokini ta'minlash, musiqani his etish muhimdir. Masalan o'qituvchi bir asarni o'rgatishdan oldin uning mazmuni haqida suhbat o'tkazsa, dinamikasi, belgilari nimalardan iboratligi, asar xarakteri qanaqa ekanligi haqida tushuntirilsa o'quvchi musiqani ma'no bilan ifoda etishga harakat qiladi. Kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda musiqa o'yinlarining ahamiyati kattadir. Musiqa o'yinlari o'quvchilar tafakkurini, xotirasini va diqqatini faollashtiradi. "Ritmni top", "Ohangni davom ettir", "Musiqa kimniki?" kabi o'yinlar orqali bolalar eshitish qobiliyatini mash qilishadi, musiqiy tafakkurini kengaytirishadi. Kognitiv faoliyatning faollashuvi ijrochilik sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: o'quvchi tezroq o'rganishga harakat qiladi, musiqani chuqurroq anglaydi va ijodiy yondashuvni o'zlashtiradi. Kognitiv qobiliyat va ijrochilik mahorati o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, estetik his-tuyg'ulari va o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi musiqa ta'limida interaktiv metodlar, masalan rol o'ynash, sahnalashtirish, jamoaviy ansambl mashg'ulotlari keng qo'llanilmoqda. Bunda o'quvchilar musiqani nafaqat tinglovchi, balki, ishtirokchi sifatida his etishadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari masalan, musiqa dasturlari, vediodarslar yordamida o'quvchilar o'z ijrolarini tahlil qilish, xatolarini ko'rish va to'g'irlash imkoniga ega bo'lishadi. Musiqa madaniyati darslari yosh avlodni nafaqat musiqiy ta'lim bilan qamrab oladi, balki ularni estetik tarbiyalaydi, madaniy merosimizni asrab - avaylashga, ijodiy rivojlanishga yo'naltiradi. Bu ta'lim tizimida musiqa ta'limining strategik yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Maktab o'quvchilarida ijrochilik mahoratini oshirish va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish - bu o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, u o'qituvchining to'g'ri yondashuvi, zamonaviy metodlardan oqilona foydalanishi hamda musiqaga bo'lgan muhabbatni uyg'otish orqali amalga oshadi. Musiqa ta'limi orqali o'quvchilar badiiy dunyoqarashini, tafakkur, xotira, diqqat, tahlil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu bois ijrochilikni shakllantirish jarayonida bir dars o'quvchi uchun faqat o'qish emas, yaratuvchanlik maydoniga aylanishi lozim. Musiqa madaniyati darslarini ijrochilik mahoratini yo'naltirish, o'quvchilarning musiqiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi va ularning umumiy shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab - quvvatlaydi. Har dars mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanish, mavzuni tushunarli va sodda bo'lishiga, o'quvchilarni fanga qiziqishlari ortishiga xizmat qiladi. Shu e'tiboran musiqa darslarining ham mazmunli qiziqarli, eng muhimi bola uchun tushunarli bo'lishi uchun, o'quvchilarda musiqiy intellektual salohiyatni ortishi uchun musiqiy - didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqiy o'yinlar dars haqida alohida taassurot uyg'otadi, uni rang - barang qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqa madaniyati darslarida o'qituvchilar "Tonalikni toping", "Bu qaysi tovush", "Major va minorni farqlang" kabi didaktik o'yinlardan foydalanib, mashg'ulot o'tishsa dars o'quvchilar uchun yanada tushunarliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Bu o'yinlar o'quvchilarda eshitish qobiliyatiga, ijrochilik mahoratiga, albatta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kognitiv bilimlarini oshiradi. Musiqa darsini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar mubolag'asiz ezgu niyatli, kelajak uchun aniq maqsadli Vatanimizga munosib farzand bo'lib yetishadi. Zero, musiqaga oshno qalblardan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. "Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni ijrochilik mahorati asosida tarbiyalash". Vol.3 No.1 (2025) Zamonaviy ta'limda fan va innavatsion tadqiqotlar jurnali
2. Dewey J. "San'at va tarbiya" Toshkent O'qituvchi 2019

3. Ismoilov N. “Musiqqa madaniyati darslarida ijodiy yondashuvlar”. Ta’lim va texnologiyalar 2022.
4. Karimov Sh. “Musiqiy ta’lim va tarbiya nazariyasi”. Toshkent: Ilm Ziya nashriyoti 2020
2. Abdullayeva M. “Umumiy o`rta ta’lim maktablari musiqqa madaniyati darslarida o`quvchilarni ijrochilik mahorati asosida tarbiyalash”. Vol.3 No.1 (2025) Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali.
3. Orazaliyeva, R. .,& Genjibayeva, N. “Musiqiy ijrochilik san’nati”. Modern science and Research, 4(10), 181-186.